



2022-yil 19-aprel

Navoiy shahri

## PRESS-RELIZ

**2022-yil 19-aprel kuni Navoiy shahridagi “NKMK tarixi” muzeyida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati faoliyatining 2021-yil yakunlari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun matbuot anjumanı o‘tkazildi.**

Matbuot anjumanida “NKMK” AJ bosh direktorining hodimlar va ma’muriy masalalar bo‘yicha o‘rnbosari, boshqaruv a’zosi Qurbunmurat Taparov, byudjetlashtirish va controlling bo‘limi boshlig‘i Umidjon Kostayev, jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha direktor Xolmamat Raupov, OAV vakillari va jurnalistlar ishtirot etishdi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining o‘rni va salmog‘i katta. Keyingi yillarda kombinatda yirik investitsion loyihamlar amalga oshirilayapti. Bu loyihamlar doirasida 2021-yilda **7-gidrometallurgiya zavodi** foydalanishga topshirilganligi, 2-gidrometallurgiya zavodida yiliga **12 mln tonna** ma’danni qayta ishlaydigan **“B” korpusi** ishga tushirilganligi qayd etildi.

“NKMK” AJning respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **13 foizdan** ortiqni tashkil etishi, davlat byudjetiga jami tushumlarining ulushi esa **20 foizga** yaqinligi, 2021-yilda kombinat jahondagi oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalar reytingida **5-o‘rinni** egallaganligi ta’kidlab o‘tildi.

2021-yilda “NKMK” AJ tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi **51,2 trln so‘mga** bajarildi. Investitsiya dasturi doirasida **604,5 mln dollarlik** mablag‘ o‘zlashtirilib, 3 371 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida **430,4 mlrd so‘mlik** mahsulot ishlab chiqarildi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida qariyb **4 trln so‘mlik** mahsulot xarid qilindi. Mahsulot tannarxini kamaytirish bo‘yicha kompleks choratadbirlar ijrosi natijasida mahsulot tannarxini **1 trln so‘mga** yoki **7,3 foizga** kamaytirishga erishildi. O‘tgan yilda yuqorida keltirilgan korxona faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2020-yilga nisbatan o‘sish sur’ati qayd etildi.

Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflichcha javoblar berildi.

### Murojaat uchun ma’lumotlar:

“NKMK” AJ matbuot xizmati, Ish telefonlari: +99879 227-75-88, 227-74-59

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

[t.me/ngmkofficial](https://t.me/ngmkofficial), [www.fb.com/ngmkofficial](https://www.fb.com/ngmkofficial), [instagram.com/ngmk.official](https://instagram.com/ngmk.official), [www.youtube.com/nkmkofficial](https://www.youtube.com/nkmkofficial)